



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 12 iyul

№ 1804

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislarini tasdiqlash to‘g‘risida

Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari, “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizomning 11-13-bandlariga muvofiq:

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu Qaror ijrosini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi direktori Isoqov Hoji-Murod Isroilovich zimmasiga yuklatilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

X.Yodgorov

*Sudyalar oliy kengashining
2023 yil 12 iyuldagi 1804-sonli
qarori bilan tasdiqlangan*

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabining yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari
TARKIBI**

t/r	I.Familiya.	Lavozimi	Komissiyadagi ishtiroki
Jinoyat huquqi ixtisosligi 1-guruh bo‘yicha			
1.	I.Muslimov	Oliy sud raisi o‘rinbosari	Komissiya raisi
Jinoyat huquqi ixtisosligi 2-guruh bo‘yicha			
2.	I.Rahmonqulov	Oliy sud sudyasi	Komissiya raisi
Fuqarolik huquqi ixtisosligi 1-guruh bo‘yicha			
3.	X.Turaxodjayev	Oliy sud raisi o‘rinbosari	Komissiya raisi
Fuqarolik huquqi ixtisosligi 2-guruh bo‘yicha			
4.	J.Balkibayeva	Konstitutsiyaviy sud sudyasi	Komissiya raisi
Iqtisodiy huquq ixtisosligi bo‘yicha			
5.	Sh.Polvonov	Oliy sud raisi o‘rinbosari	Komissiya raisi
Ma‘muriy huquq ixtisosligi bo‘yicha			
6.	R.Maxmudova	Oliy sud raisi birinchi o‘rinbosari	Komissiya raisi